



## **MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA TA`LIMINING AHAMIYATI VA MUOMMOLARI**

**Muallif:** Doniyorova Zebo Oltmisboyevna<sup>1</sup>

**Affiliatsiya:** Samarcand viloyati, Bulung'ur tuman MMTBga qarashli 10-umumta'lismaktabi musiqa fani oliy toifa (bosh) o'qituvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14406402>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Maktabgacha va Maktabta'lim tashkilotlarida musiqa dars mashg`ulotlarining nechog`li ahmiyatga ega ekanligi va samarali tashkil etishda qo'llanishi mumkin bo'lgan bir nechta didaktik usullar, cholg`u ijrochilik an`analaridagi muommolarni yechish haqida so'z boradi.Ta`lim sohasida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislarga maqolada keltirib o'tilgan usullar bilan yaqindan tanishib chiqishlarini tavsiya qilamiz.

**Kalit so'zlar:** Metodika, pedagogika, psixologiya, maktabgacha ta'lism, didaktika, musiqa, metod, kompetensiya, kommunikativlik, cholg`u asboblari, ong, tasavvur, mashg`ulot, individual.

Yoritilayotgan mavzuning dolzarbligini anglab yetish uchun musiqa-kuchli assotsiativ omil ekanligi anglash, kelajagimiz egalari bo`lgan ta`lim oluvchilar taqdiriga befarq bo`lmasligimiz lozimligi. Darsmashg`ulot jarayonlarini to`g`ri va samarali tashkil etish, bizga yuklatilgan vazifani vijdonan bajarish ta`lim oluvchilarga cholg`u ijrochiligi ko`nikmalarini o`rgatish yuksak vazifamiz ekanligini haqidamaqolada bayon etilgan.Bundan tashqari darsda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodlar xususida so'z yuritamiz. Maqolani o'qib chiqing xulosa o`zingizdan.

Musiqa san`ati bugungi kunda ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida ma`naviy vosita bo`lib xizmat qilmoqda. Jumladan televideniya, kino, iqtisodiyod, marketing sohasida oddiy reklama roligini musiqasiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma`naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Bunda musiqa fanini o`rni begiyosdir. Har qanday san`atkor ham maktabda musiqa darslarini olib borolmaydi.

Zamonaviy musiqa o`qituvchisi pedagogika, psixologiya, bolalar fizalogiyasi,musiqa nazariyasini chuqur bilmog`i va kamida 3 ta o`zbek xalq cholg`usini ijro eta olishi joizdir. Bu bugungi yangi O`zbekiston musiqa o`qituvchisining eng muhim vazifasidur. Buning uchun davlatimiz tomonidan barcha sharoitlar yaratilmoqda barcha maktablar 7 turdag'i o`zbek xalq cholg`ulari bilan taminlandi endi dangasa ustozlar uchun baxona bo`ladigan cholg`u yo`q degan so`zlar ish bermaydi.O`qituvchida dangosalikni qo`yib o`z ustida ishlab yosh avlodlarga musiqaning sehirli kuchi orqali cholg`uchilik ko`nikmalarini shakllantirish yo`li qoldi.Bu yo`lda eng avallo o`z metodikasini yaratib interfaol usullar ("Klaster", "Avtofoks", "Kayfiyat", "Ovozidan top",

"Marhamat davom ettiring", "Orkesr" didaktik o`yinlar) orqali darsni samarali olib borish kerak.

Musiqa fanining yana bir ahamiyatli tomoniamaliy fan bo`lganligi bilan fanlar integratsiyasida juda ko`p nazariy bilimlarni o`rgatadi misol bir vaqtning o`zida qo`schiq matnnini yozish, yod olish, ijro etish intanatsiyasi, ijodkorlarini o`rganish, cholg` u ijrochiligidagi tovush tebranishi, ikki jism ishqalanishi deysizmu jismoniy tarbiya musiqaga xos xarakatlar va boshqa misollarni keltirish mumkin.

Eng muhim jihat "Musiqa asbobinijro etganda har ikki qo`Ining bir vaqtida ishlashi bola miyasining har ikki qismining rivojlanishi va ishlashini kuchaytiradi". Shuni inobatga olgan holda yoshligidan cholg`uga mehr qo`yan holda shug` ullantirish lozim bunda musiqa ustozlarining o`rni katta va bu burchlarini to`g`ri tashkil qilmog`i lozim.

Cholg`u ijrochilik an`analaridagi muammolardan biri biz uni kechiktirayotganimizda, o`rgatishni maktabgacha yoshdan boshlab amalga oshirmog`imiz lozim. Bola cholg`u asbobini ushlay olmaydi, kattalik qiladi degan savolga javob musiqa asbobini tutib emas, ongi, tasavvuri orqali ijro etishi mumkin. Bunda musiqa o`qituvchisi cholg`uni ijro etib ijro tehnikasini tushuntirib ko`rsatadi va bolalarga bir muddat ko`zlarini yumib ushbu kuyni o`zlarichalyotganini tasavvur etishlarini so`raydi. Tajriba faoliyatimda o`quvchilarga cholg`u ijrochiligi murakkabdek ko`ringanligi va bu sinovni o`tkazganimdan so`ng ularning ijrochilikka ishtiyoqi oshganligini kuzatdim.

Ikkinci usul bumaktabgacha va boshlangich sinflarda ko`p qo`llaniladigan ritmik harakatlarni ko`proq qo`llash, qo`llaganda ham biron ta cholg`u asbobini ijro tehnikasini aks ettiruvchi harakatva kuy ritmini qo`llash yaxshi samara beradi. Bu usullarni jamaoviy bajarish o`quvchilarda yanada qiziqarli bo`ladi. Harakatlarni to`g`ri bajarmaganlar bilan individual shug`illanib butun bir sinf yoki guruhni cholg`uchilik an`analaridagi muammolar yechimini topasiz.

Bu usullarni maktabgacha ta`lim va boshlang`ich sinflarning har bir dars mashulot jarayonida 2-3 daqqa qo`llash "men bu cholg`uni ijro eta olmayman" degan tasavvurni yo`qotadi va dars samaradorligini oshiradi. Yuqori sinflarda bu usulni cholg`u asbobi bilan amalga oshiramiz. Mana shu tartibda musiqa o`qituvchisiga qo`yilgan "Umumta`lim maktab bitiruvchisi kamida 1 ta o`zbek xalq cholg`usini bilmog`i lozim" talabini bajaramiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Beshimova, N. R. (2020). Pedagogik hamkorlik va o`zaro tajriba almashish: nazariy va amaliy jihatlar. Tashkent: Fan.

Xushvaqtov, A. T. (2021). Maktabgacha ta'limda innovatsion yondoshuvlar. Toshkent: O'zbekiston.

Mamatdaliyeva, Sh. A. (2022). Pedagogika va ta'llim: O'quv metodikasi. Tashkent: O'zbekiston.

Karimov, D. S. (2023). Bolalar ta'limidagi o`zaro hamkorlikning rolini tahlil qilish. Tashkent: Ta'lif.